

TO'G'RIDAN TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI HAMDA INVESTITSİYA NAZARIYASI

Qo'ldoshev Sanjar

Orcid: 0009-0005-2406-904X

e-mail: sanjarkuldoshev99@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7828496>

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni shakllari, Iqtisodiyotini rivojlantirish yo'nalishlari hamda investitsiya tushunchasi yoritilgan, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar faol jalb qilish bo'yicha takliflar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investitsiyalari, investitsiya muhiti, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ И ТЕОРИЯ ИНВЕСТИЦИЙ

Аннотация. В данной статье описаны формы привлечения прямых иностранных инвестиций, направления экономического развития и концепция инвестиций, а также предложения по активному привлечению прямых иностранных инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная среда, привлечение прямых иностранных инвестиций.

WAYS TO DEVELOP FOREIGN DIRECT INVESTMENT ATTRACTION AND INVESTMENT THEORY

Abstract. This article describes the forms of attracting foreign direct investment, directions of economic development and the concept of investment, as well as suggestions for actively attracting foreign direct investment. it has been said.

Key words: investment, foreign investments, investment environment, attraction of direct foreign investments.

KIRISH

Jahonda mamlakatlari iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanib borayotgan bir davrda bizning ham yurtimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni taqoza etmoqda. "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lidagi eng asosiy vosita hisoblanadi" [1]. Dunyo mamlakatlari ilmiy o'rganishlari shuni ko'rsatadiki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat mulkining va davlat hissasi bo'lgan xo'jalik yurituvchi jamiyatlarning ishlab chiqarish hajmi va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratib berish, yangi raqobatbardosh korxonalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalariga e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat zonalar roli beqiyosdir. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yo'naltirishning asosiy muommolaridan biri, hududlarda ularni to'g'ri taqsimlash muommosidir. Shu boisdan «O'zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi

chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish" [2] vazifasi alohida belgilab berildi.

ASOSIY QISM

Investitsiya (lotincha: investio - o‘rash) — iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida biror bir davlatda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarga, uzoq muddatli sarmoya kiritish. Pulning vaqtga bog‘liq qiymati nazariyasiga ko‘ra, investitsiya yaqin yoki uzod kelajakda foyda olish maqsadida mablag‘lar kiritishdir. Iqtisodiy jihatdan investitsiya turli sohalarga safarbar etilgan moddiy yoki nomoddiy boyliklarga bo‘lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, sertifikat, obligatsiya), yer, inshootlar kabi boyliklar, ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va b. ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga investorlar davlat, korxona, kompaniya, chet ellik shaxslar, va boshqalar kirishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalar keng qamrovli tushunchadir va uni quyidagicha izohlash mumkin. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalari-chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobidan investitsiyalari [3]. A.Sh.Bekmurodov fikricha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar-investorga korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport qilish va shu bilan korxona asosiy bosh kompaniyasining xorijiy sho‘ba korxonasiga aylanadi [4]. B.A.Vaxobov esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar-investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta’sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir, deb ta’kidlaydi [5]. A.S.Azizov to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo‘jalik faoliyati ustidan qisman yoki to‘liq nazoratni ta’minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta’kidlaydi[6].

Investitsiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. davlat tomonidan kiritiladigan investitsiya — davlat byudjeti va moliya hisobidan kiritiladi;
2. chet el investitsiyasi — xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, korporatsiyalar yoki tadbirkorlar tomonidan kiritiladi;
3. xususiy investitsiya — xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan, shaxsiy mablag‘lar hisobidan qo‘yiladi.

Investitsiya qo‘yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo‘linadi.

Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va b. qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga qo‘yiladigan investitsiya, ;

Real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va b.) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag‘lar qo‘yish shakllarida amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarni aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, byudjet mablag‘lari, bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo‘jalik yuritish sub’yektlarining boshqa mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va b.ga mablag' sarflash) ko'rinishlari bor.

Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Jahondagi bevosita investitsiya faol o'sib bormoqda: 1980-yillar o'rtalarida jahon bo'yicha umumiy yillik investitsiya hajmi 450 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yillar o'rtalariga kelib investitsiya hajmi 2 trillion dollardan oshdi.

Barchaga malumki har bir davlat yoki shaxs biror davlatga yoki biror sohaga investitsiya kiritar ekan uning asosiy maqsadi maksimal tarzda daromad olishdir. Avvalambor investitsiya qaysi sohalarga ko'proq kiritilishi mumkin? Albatta daromad manbai bo'lmish ishlab chiqarish yoki undan ham ser daromad soha turizmga sababi turizm sohasida yaratilgan 1 ta ish o'rni 20 ta sanoat sohasida yaratilgan ish o'rniga tengdir. Malumki davlatga tashrif buyuradigan 30 ta turist istalgan istalmagan holda 2 yoki 3 ta ish o'rni yaratadi. Bu sohalar serdaromad bo'lganligi sabab ham investorlarni ko'proq o'ziga jalb qiladi.

Endi esa investorlarni ko'proq investitsiya kiritishi uchun nimalar qilish kerak ekanligi haqida suhbatlashsak:

1. puxta ishlangan strategiya (yani maqsadlarni aniq qo'yish)
2. qulay sanoat zonasi (beznis uchun ajratilgan qulay hudud)
3. kafolatlangan daromad (kelajakda o'sha sohadan daromad olishini kafolatlash)
4. huquqlarining kafolatlanishi (mamlakat hududida uning mol mulki, uning faoliyatini qonun bilan kafolatlash hamda himoya qilish)
5. aniq, ochiq, hamda to'g'ri tuzilgan beznis loyiha (loyihaning maqsadi va vazifalari hamda uning kelajakda olib kelishi mumkin bo'lgan sof foydasi)

XULOSA

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha xulosalar quyidagicha bo'ldi. Jumladan: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali tizimini yaratish uchun birinchidan, puxta o'ylangan strategiyani ishlab chiqish, ikkinchidan, "yo'l xaritalari" yaratish, uchinchidan, uzoq yillarga mo'ljallangan rivojlanish konseptsiyasini yaratish. Investitsiyalarni kiritish qarorini qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'plami investorning qaysi sohaga tegishli ekaniga qarab turlanadi, lekin barcha turdagi investorlarni jalb qilishda hududning investitsion muhitini ifodalovchi va unga tasir ko'rsatuvchi indikatorlarning bo'lishi maqsadga muvofiqligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun quyidagi vazifalarning ijrosini ta'minlash o'rinli: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga tegishli qonunchilikni xalqaro va mintaqaviy standartlarga moslashtirish, xalqaro tajribada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modeli huquqiy tartibga solish; innovatsion loyihalarni shakllantirayotgan tarmoqlarga va korxonalarga qo'shimcha imtiyozlar berish; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar bilan aloqalarini faollashtirish ta'minlash zarur deb hisoblayman.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishning turlicha usullari bo'lib, barchasining asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan.

REFERENCES

1. James E. Anderson, Mario Larch, Yoto V. Yotov. Trade and Investment in the Global Economy. Journal of NBER Working Paper No. 23757 (2017) 1879-1913. <https://www.nber.org/papers/w23757>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llabquvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida" gi Farmoni. 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi O'RQ-598-son Qonuni, 3-modda.
4. A.Sh.Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot. – T. – O'quv qo'llanma.
5. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O'quv qo'llanma.
6. A.S.Azizov. (2021) To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.
7. World Investment Report 2020. <https://unctad.org/webflyer/world-investment-report2020>